

PAPER

“Drafting” texnologiyasida grafiklarning ahamiyati va qo‘llanilishi

Umarova Muhayyo Turg‘unboy qizi^{1,*}

¹Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

*m.umarova@pf.fdu.uz

Abstract

Ko‘plab talabalarining muammoli nuqtasi hisoblangan yaxshi insho yoza olish har doim oson ish emas. Ba‘zilar yaxshi insho yoza olish uchun tug‘ma qobiliyat bo‘lishi zarur deb hisoblaydilar, aslida esa, yozma muloqot kompetensiyani rivojlantirish uchun talantli bo‘lib tug‘ilish shart emas. Aksincha, bu kabi yozma san‘at asarlari orttirilgan bilim va tajribalar, bundan tashqari, har qanday ishning mukammal va ishonchli yaratilishida u uchun oldindan tashkillangan reja va loyihalash (qoralama)ning o‘rni kattadir. Bu kabi qoramalarni esa oddiy qog‘ozga emas, balki vizual vositalar asosida tashkillash talabalarda yozishga bo‘lgan qiziqishni ortishiga hamda ijodiy fikrlashga undaydi. Ushbu maqola grafiklardan qoralama sifatida foydalanish yozish ko‘nikmasini rivojlantirishda samarali ekanligini ko‘rsatadi.

Key words: grafik organayzerlar; mindmap; learning map; cluster diagram; spider map; double-bubble map.

Kirish va adabiyotlar tahlili

Ingliz tili ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi yana bir samarali vizual vositalardan biri grafik tashkillovchilardir. Aslida, grafik organayzerlar deb ataluvchi bu vosita ma‘lumotlarni tartibga solish va uni ma‘lum bir sxema ostida sinflashga yordam beradigan vizual namoyish usullaridan biri hisoblanadi. Ikki tomonlama kodlash, rasm-so‘z modellarining bir ifodasi bo‘lmish grafik organayzerlar so‘z va rasmlar ma‘lumotni o‘zida birlashtirgani sabab, o‘qitish va o‘rganish jarayonini yanada tushunarli ham samaraliroq qiladi.

Grafik organayzerlar bir qancha vazifalarni bajarishga, xususan, ma‘lumotlarni ma‘lum bir tuzilishga yoki ketma-ketlik asosida jarayonga tadbiiq etish orqali fikrlarni tushunishga, ularni izohlashga va fikrlar o‘rtasida bog‘liqlikni ifodalashga, muammoni yechish yoki qaror qabul qilishga yordam beradi. Bu kabi texnika vizual tuzilma vositasi hisoblangani bois, ma‘lumotlarni egallash va yangi fikrlarni rivojlantirish uchun vaqtinchalik tuzilma vazifasini bajaradi. Grafik organayzerlar yordamida ma‘lumotlarni bir sxema ostida tasniflash, fakt va fikrlarni aniqlashtirish, qiyoslash va zidlash, izohlash hamda xulosa chiqarish kabi amallarni bajarish mumkin [1].

Shu sababli, til o‘rganuvchilarda ma‘lumotlarni tahlil qilish jarayoni paydo bo‘lib, ularning ijodkorlik, tanqidiy-analitik tahlil qilish hamda ijodiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Grafik or-

ganayzerlardan foydalanish ilm-fandagi barcha sohalar qatori til o‘qitishda ham lug‘at, o‘qish va yozish ko‘nikmasini rivojlantirishga yordam beradigan eng kuchli ko‘rsatmali qurilma va strategiya deya tan olingan [2].

Sababi, bu kabi vositalar talabalarni o‘rganilayotgan materialga qisqacha izoh; yangi so‘zlarni va asosiy ma‘lumotlar uchun turli ishoralar; yozma va og‘zaki ma‘lumotlar uchun vizual hodisa hamda qisqacha ko‘rib chiqish texnikasi bilan ta‘minlaydi. Ba‘zi organayzerlar barcha dars jarayonlariga moslasha olganligi sababli, o‘qitishdan oldin, mavzuni tanishtirishda va o‘qitishda, mustaqil izlanishda, o‘qib takrorlashda hamda imtixonga baholash material sifatida keng qo‘llaniladi. Baholash jarayonida ayniqsa samarali vosita hisoblanib, talabalar mavzuni qay darajada o‘zlashtirganliklari, ularning grafik organayzer yaratishga doir fikrlash va ijodkorliklari tekshiriladi. Grafik organayzerlar ko‘p hollarda o‘qish va yozish ko‘nikmasini rivojlantirishda asosiy omil bo‘lib, ko‘p hollarda kalit so‘zlar shaklda namoyon bo‘ladi va bu esa talabalarda ma‘noni anglashda butun gap tuzilishidan ko‘ra ma‘noga ko‘proq o‘z e‘tiborlarini qaratishga xizmat qiladi [3].

Bu xususda tildagi barcha grammatik to‘siqlarni olib tashlashga yordam berib, ma‘noni o‘zigagina urg‘u beradilar. Bunga qo‘shimcha ravishda ayni shu xususiyati bilan barcha darajadagi talabalarni o‘qitishda keng qo‘llanila oladi. J.Bishop ta‘kidlaganidek, yozma ko‘nikmada qiyinchilikka duch keladigan talabalar aynan

grafik organayzerlar tufayli yozma ishlarini rejaga solish, tashkil-lash, munosib so'zlarni tanlash hamda ularni mantiqiy bog'lash san'atini rivojlantira oladilar [4].

Bundan tashqari, grafik organayzerlarning turlariga asoslanib, M.Youman talabalarda o'qib tushunish ko'nikmasini o'stirish va eski bilimlarini yodga olish maqsadida ular o'qiyotgan va allaqachon bilgan ma'lumotlar orasida bog'liqliklar yaratishga xizmat qiluvchi tizim vazifasini bajaruvchi bu kabi vizual materiallarni ahamiyatini yana bir bor ta'kidlaydi [5]. Boshqacha qilib aytganda, biror mavzu berilganda talabalar o'zlari mavzuga oid bilimlarini va yangi o'rgangan ma'lumotlarini birlashtirgan holda muallif hamda o'zlarining til va madaniy jihatdan farqlarini oson anglaydilar. Natijada, grafik organayzerlar yaratish jarayonida talabalar o'zlari mustaqil izlanadilar va ma'lumotlarni tahlil qilishga majbur bo'ladilar. Bu jarayon darsda o'qituvchining asosiy ro'lidan o'quvchining markazlashuviga olib keladi.

Tildagi barcha ko'nikma turlari bir-biriga uzviy bog'liqligi sabab, talabalar birgina strategiya orqali barcha til ko'nikmalarini rivojlantira olishlari mumkin. Xususan, talabalarda o'qish ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladigan grafik organayzerlar yordamida lug'at boyligi hamda muloqot qobiliyati rivojlantirish mumkinligi aniqlandi. S.Mart olib borgan tadqiqotda, talabalar o'quv manbalaridan olgan materiallarni tushunish uchun grafik organayzerlardan foydalandilar va bu ma'lumotlarni sinfda namoyish qilishlari talab etildi. Bu topshiriq orqali talabalar bir qator yangi so'zlarga duch keldilar va bir vaqtning o'zida lug'at boyligini oshiradilar, shu bilan birga olgan ma'lumotlarini kalit so'zlar shaklida qayd qilib borish natijasida ular namoyish vaqtida yangi so'zlardan foydalanib erkin va aniq usulda fikrlarini bayon etishlari isbotlandi [6].

Grafik organayzerlar vazifasi va tuzilishiga ko'ra bir necha xil turlarga bo'linib, har biri ma'lum bir turdagi ma'lumotni namoyish etishga moslashtirilgan. Grafik organayzerlar turlar Gil-Garchia va J.Villegaslar tomonidan olti xil: ta'riflash yoki oddiy tartiblash; vaqt ketma-ketligi; izoh va misol; qiyoslash va zidlash; sabab va natija; muammo hamda yechim ko'rinishlarida tasniflangan [7]. Izlanishlar davomida grafik organayzerlar turli xil shakl va ko'rinishlarda uslubshunoslar tomonidan izohlangan. Lekin bu ko'rinishlarning barchasi yuqoridagi vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. Endi esa grafik organayzerlarning qaysi til ko'nikmasini rivojlantirishda muhimligiga ko'ra turlari bilan batafsil tanishib chiqamiz.

Metodologiya va natijalar

Yozish ko'nikmasi va fikrlarni jamlash (brainstorming) texnikasi uchun ko'p foydalaniladigan grafik organayzerlar: Grafik organayzerlarning eng ko'p tarqalgan va keng foydalaniladigan turlaridan biri xaritalardir. Bu o'ziga yo'l xaritasi emas, balki yozma ishni tashkillashda va yozishda kerakli bo'lgan fikr va g'oyalarni joylashtirish usulidir. O'qitishda foydalaniladigan xaritalarning bir qancha turlari mavjud.

• O'rganish xaritasi (learning map)

O'rganish xaritasi til o'rganish, umuman olganda dars jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan xarita turi bo'lib, talabalar darsdan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirib olishda muhim bo'lgan vizual tasvirlash usullaridan biri hisoblanadi. Bu kabi materiallar odatda o'rganilayotgan mavzuga oid tarkibiy qismlarni bir-biriga bog'lash uchun qo'llaniladigan yuqori darajali vizual tasvir bo'lib xizmat qiladi. O'rganish xaritasi ma'lumotlarni qayd qilish yoki fikrlarni jamlash texnikasi uchun juda muhim vositadir. Figure 1.

Bu rasmga asosan, o'zlashtirilishi kerak bo'lgan mavzu xaritaning markaziga yoziladi. Talabalar o'qiyotgan manbalaridan yoki mavzuga oid bilimlarini muhimlik darajasiga ko'ra xarita bo'ylab joylashtirib chiqishlari talab etiladi. Har bir yozilgan fikr yoki so'z markazdagi mavzuga bevosita aloqador bo'lishi kerak. Talabalarining ijodkorligiga ko'ra, xaritaning vizual ko'rinishi turlicha bo'lishi

Figure 1. O'rganish xaritasi ko'rinishi




Figure 2. Idrok xaritasi ko'rinishi




Figure 3. Ikki pufakchali xarita ko'rinishi



mumkin.

• Idrok xaritasi (Mind map)

O'rganish xaritasiga o'xshash bo'lgan keying xarita turi idrok xaritasi bo'lib, mavzuga oid bilimlarni yodga olish va fikrlarni jamlashga yordam beradi. Bundan tashqari, u mavzu haqida ma'lumotlarni tashkillash va ularni guruhlariga tasniflash vazifasini ham bajara oladi. Figure 2.

Bu vizual ko'rinishda ham asosiy fikr tasvirning markaziga joylashtiriladi. O'rtadan boshlab, turli xil tomonlarga tarmoqlar chiqariladi va aloqador fikr va so'zlar yoziladi. Yana shu tarmoqlardan subtarmoqlar chiqargan holda, mavzuga oid fikrlar ko'lamini kengaytirish mumkin.

• Ikki pufakchali xarita (Double bubble map)

Bu nomli xarita eng mashhur o'ylash xaritalaridan biridir. Bu xarita turi ko'rinishidan Venn diagrammasiga o'xshab ketadi va ikki narsa o'rtasidagi o'xshashlik va farqli jihatlarni solishtirishga xizmat qilgani sabab, qiyoslash-zidlash vazifasini bajaruvchi grafik organayzerlar turiga kiradi. Bu xarita orqali talabalar o'rganilgan ma'lumotlarni solishtirib, o'qish ko'nikmasini hamda qiyoslash va zidlash mavzusiga oid insho ustida ishlash orqali yozma nutq ko'nikmasini rivojlantira oladilar. Figure 3.

Bu rasmga ko'ra, solishtirilishi talab qilingan ikki xil fikr yoki mavzu markazdagi pufakchalar ichiga joylashtiriladi. Tahlil qilingandan so'ng, farqli jihatlar markaz turli xil yo'nalishlarga

Figure 4. O'rgimchak xaritasining ko'rinishi [8]




Figure 5. Klaster diagrammasi



qarab joylashtirilgan pufakcha shaklidagi aylana ichida yoziladi. O'xshash tomonlari esa ikki mavzu uchun umumlashgan pufakchalar ichiga joylashtiriladi.

O'rgimchak xaritasi (Spider map)

Bu xarita turi, xuddi o'rgimchak to'riga o'xshash holda joylashtirilganligi sabab, shu nom bilan ataladi. Bu xaritani qo'lda chizish orqali ham yaratilishi mumkin. Markazga katta dumaloq aylana chiziladi va undan turli tomonga strelka shaklida o'qlar chiqariladi. Bu kabi xaritalar guruhga tegishli bo'lgan izohni tushuntirishga yordam beradi. Atrofidagi tarmoqlar bo'ylab, ma'lumotning turlari yoki shunga o'xshash bog'liq ma'lumotlar berilishi mumkin. Figure 4.

Dars jarayonida xaritalardan so'ng, eng ko'p qo'llaniladigan grafik organayzerlardan biri bu diagrammalardir. Boshqa vizual texnologiyalar singari diagrammalar ham darsning sifatini oshirishga, talabalarning darsga nisbatan qiziqishlarini orttirishga xizmat qiladi. Xususan, Kunnigham hamda Redmondning fikriga ko'ra, diagrammalar darsni qiziqarli va jo'shqin tashkillashda o'qituvchilar uchun eng oson metod sifatida tanilgan. Bundan tashqari, yozma nutqni o'stirishda diagrammalardan foydalanish yozma nutqda talabalarning gap tuzilishiga doir bilimlarini tekshirishga hamda hech qanday grammatik va strukturaviy xatosiz ma'lumotlarini yozma tarzda ifodalashga yordam beradi [9]. Shunday diagrammalardan eng keng tarqalgan turi Venn diagrammasidir.

Klaster diagrammasi (Cluster diagram)

Klaster diagrammasi ko'p hollarda yangi mavzuni tadbiq qilishda, fikr va g'oyalarni jamlash jarayoniga yordam beradi. Tegishli mavzu diagramma markaziga yoziladi va asosiy g'oya atrofiga mavzuga aloqador kichik mavzular va so'zlar markaz bo'ylab joylashtiriladi. Kichik mavzular ham o'ziga tegishli so'z jummalarni alohida yo'nalishda diagramma bo'ylab qamrab oladi. Har bir subtopikni turli xil ranglar bilan loyihalashtirish mumkin, bu esa ma'lumotlarni o'qishga va tushunishga yengillik yaratadi. Figure 5.

Lotus diagrammasi (Lotus diagram)

Figure 6. Lotus diagrammasi ko'rinishi.



Bu diagramma turi tahliliy vizual vosita hisoblanib, kengroq va murakkab qamrovdagi ma'lumotlarni oson tushunish uchun kichik tarkibiy qismlarga ajratishga yordam beradi. Figure 6.

Markazga 3 ga 3 panjara shaklda jadval joylashtiriladi. Markazga o'rganilishi zarur bo'lgan mavzu yoziladi. Atroflama joylashtirilgan subtopiklarga asosiy mavzuga aloqador kichik bo'linmalar yozib chiqiladi. Xuddi shu kabi jadvaldan yana 8ta chiziladi va har bir bosh joylarga kichik bo'linmalarga tegishli so'z va iboralar yoziladi.

Yuqorida tasvirlangan barcha xarita va diagrammalar asosan, talabalarda yozish ko'nikmasini rivojlantirishda xizmat qilishi mumkin. Xususan, ma'lum bir muammoga bag'ishlangan insho yozishga tayyorgarlik ko'rishdan avval uning qoralama nusxasi yaratiladi. Bu usul talabalarga insho yozishda yuz kelishi mumkin bo'lgan xato va kamchiliklarni oldini olish va inshoning mazmunda hamda samarali chiqishiga yordam beradi, aynan qoralama sifatida grafik organayzerlardan foydalanish talabalarda yozma ishni zavqli jarayonga aylantirishga xizmat qiladi.

Muhokama va xulosalar

Bundan tashqari, yozma ko'nikmani baholash jarayonida foydalaniladigan bir qancha insho turlari mavjud. Talabalarning eng og'riqli nuqtasi bo'lmish yozma imtixonlarda insho turlarining ko'pligi va ularning tuzilish jihatdan xilma-xilligi bu sohada ko'proq bilimlarning egallanishi va tajriba sifatida amaliy jarayonda keng qo'llanilishini talab qiladi. Yozma nutqda turli xil muammoli vaziyatlarni yoritish, biror muammoning sabab va natijalari, ularni yechish usullari bilan tanishib chiqish jarayoniga yordam beruvchi bir qancha grafik organayzerlar ham mavjud. Bu grafiklarning turlari yordamida talabalar yoritilishi zarur bo'lgan mavzular haqida fikr-mulohaza yuritishlari, ma'lumotlarni ma'lum grafik asosida rejalashtirish hamda undan yozish davomida foydalanishlari mumkin. Bu kabi vizuallik ularda muhokama qilinishi zarur bo'lgan mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otishga va muammoga ijodiy yondashishlariga turtki bo'ladi.

Grafik organayzerlar yordamida ma'lumotlarni bir sxema ostida tasniflash, fakt va fikrlarni aniqlashtirish, qiyoslash va zidlash, izohlash hamda xulosa chiqarish kabi amallarni bajarish mumkin. Shu sababli, til o'rganuvchilarda ma'lumotlarni tahlil qilish jarayoni paydo bo'lib, ularning ijodkorlik, tanqidiy-analitik tahlil qilish hamda ijodiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

References

1. Bishop, J. L., and Verleger, M. A. (2013). The Flipped Classroom: A Survey of the Research. 120th American Society for Engineering Education Annual Conference and Exposition, 30, 1-18.

2. Cunningham, Ann and Redmond, Mary. (2008). Instructional Design and Early Language Learning: Cognition, Creativity, and Technology. *Hispania*. 91. 435. 10.2307/20063728.
3. Gil-Garcia, A., and Villegas, J. (2003). Engaging minds, enhancing comprehension and constructing knowledge through visual representations. Paper presented at a conference on Word Association for Case Method Research and Application. Retrieved from <http://www.eric.ed.gov/PDFS/ED480131.pdf>
4. Mart, C.T. (2012). Developing Speaking Skills Through Reading. *International Journal of English Linguistics*. 2 (6), 91-96.
5. Miller, S. (2011). Using graphic organizers to increase writing performance. Unpublished MA thesis.
6. Rajan, P. S. (2013). Using Graphic Organizers to Improve Reading Comprehension Skills. *English Language Teaching*
7. Smith, J. J. (2002). The use of graphic organizers in vocabulary instruction (Unpublished master's thesis). Kean University, New Jersey, the United States.
8. State University of New York at Fredonia.
9. Youman, M. (2016). Improving Reading Comprehension Using Graphic Organizers A Qualitative Study. Master of Science in Education.